




RECREATION OF NATURE IMAGERY IN THE NOVEL FRIGHTENING TEHRAN

Asqarova Dilobar

2nd-year Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: dilobar.asqarova.2000@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

D. Ahmedova

Doctor of Philological

Associate Professor at the "School of Iranian and Afghan Studies"

Tashkent State University of Oriental Studies (TSUOS)

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Imagery, nature, translator's skill, comparison, literary work, landscape.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article analyzes the novel Frightening Tehran and its Uzbek translation through selected examples. The purpose of the article is to examine translations of works from modern Persian literature into Uzbek, to identify the translator's strengths and weaknesses, and to study their translation skills.

QO'RQINCHLI TEHRON ROMANIDA TABIAT TASVIRINING QAYTA YARATILISHI

Asqarova Dilobar

QTLT mutaxassisligi, 2-kurs magistratura bosqichi talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: dilobar.asqarova.2000@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

D. Ahmedova

Filologiya fanlari doktori

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti

TDSHU

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tasvir, tabiat, tarjimon mahorati, taqqoslash, badiiy asar, peyzaj.

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Qo'rqinchli Tehran" romani va uning o'zbek tiliga tarjimasi

misollar orqali tahlilga tortildi va ko'rib chiqildi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad zamonaviy fors adabiyotidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlar tarjimalarini tahlil qilish, tarjimonning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, tarjimon mahoratini o'rganishdir.

ВОССОЗДАНИЕ ОБРАЗОВ ПРИРОДЫ В РОМАНЕ СТРАШНЫЙ ТЕГЕРАН

АскарOVA Дилобар

Магистратура, 2-й курс

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: dilobar.asqarova.2000@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Д. Ахмедова

доктор филологических наук

доцент кафедры «Иранистики и афганистики»

Ташкентского государственного университета востоковедения (ТГУВ)

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Образ, природа, мастерство переводчика, сравнение, художественное произведение, пейзаж.

Аннотация: В данной статье рассматривается роман Страшный Тегеран и его перевод на узбекский язык на основе примеров. Цель статьи — проанализировать переводы произведений современной персидской литературы на узбекский язык, выявить достоинства и недостатки переводчика, изучить его мастерство.

KIRISH

Tarjimaning tur va xillari ko'p: badiiy asarlar tarjimasi, ilmiy-texnik adabiyotlar tarjimasi, siyosiy-publististik materiallar tarjimasi, rasmiy idora hujjatlari tarjimasi, kinofilmlar tarjimasi. Shundan kelib chiqib, tarjima xarakteriga ko'ra badiiy, ilmiy, publististik va rasmiy tarjimaga bo'linadi. Ular orasida badiiy tarjima o'zining qiyinligi, murakkabligi, talablarining yuksakligi bilan alohida ajralib turadi. Shu sababdan, badiiy tarjima o'ziga xosligi, tarjimondan alohida mahorat talab etishiga ko'ra boshqa tarjima turlaridan ajralib turadi.

Badiiy tarjima original ijoddan tayyor obyektning mavjudligi bilan farq qiladi. Tarjimon mavjud asarga yangi ijtimoiy, adabiy va milliy muhit sharoitida yangi hayot bag'ishlovchidir. Bundan kelib chiqib badiiy tarjimaning xususiyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: "o'quvchiga estetik ta'sirni qayta tiklash, muallif uslubining individual xususiyatlarini saqlab qolish, asar mazmunini tarjimada qayta yaratilganda maksimal darajada saqlash". Ya'ni bundan kelib chiqadiki, badiiy tarjima qilingan asar asl nusxaning bus-butun yangi variantiga aylanadi.

Peyzaj tasviri ham yozuvchining, ham tarjimonning mahoratini ask ettiruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Biror bir badiiy asarni bir tilidan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayoni tarjimondan katta mahorat talab etadi. Chunki, har bir badiiy asarda tasvir aks etadi. Yozuvchi yaratgan tasvir chizgilarini tarjimon qaytadan jonlantiradi. Tarjima jarayonida personaj portreti tasviri, peyzaj tasviri, asar qahramonlarining yashash tarzi, ularning milliy urf-odatlarini saqlab qolgan holda tarjimondan mahorat bilan tarjima qilish talab etiladi. Yo'qsa, asarning milliyligi va yozuvchining uslubi saqlab qolinmaydi.

Peyzaj (fr. paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interyer) tasviri. An'anaga ko'ra, peyzaj deyilganda tabiat tasviri tushuniladi. Peyzaj nafaqat tabiatni, balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko'zda tutadi. Shu ma'noda masalan biron-bir xiyobon yoki shahar ko'chasining tasviri ham peyzaj, holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir. Yozuvchi peyzajni voqealar rivojini to'xtatib qo'yganicha mufasssal tasvirlashi yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi mumkin. Peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Bunda joy tasviri personaj ruhiyati bilan uyg'unlik kasb etishi ham, unga kontrastli fon bo'lib xizmat qilishi ham mumkin. Qahramon ruhiyatidan o'tkazib berilgan peyzaj esa uning ayni damdagi holatini tasvirlash vositasi bo'la oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tasvir (ar. تصوير – tasvirlash, biror narsaning suratini solish) – badiiy vositalar yordamida voqelikdagi narsa-hodisalarni o'quvchi bevosita va yaxlit holda, ularga xos individual-betakror xususiyatlar bilan birgalikda konkret his eta oladigan tarzda aks ettirish. Badiiy adabiyotda tasvir so'z vositasida amalga oshiriladi. Shunga ko'ra tasviriy san'atdan farqli o'laroq, adabiy asarda tasvirlangan narsa-hodisa "ichki ko'z" bilan ko'riladi, so'z vositasida o'sha narsa hodisa chizgilari muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi va oxir-oqibatda tasavvurda uning tasviri jonlanadi.

"Qo'rqinchli Tehron" romanidagi ertalabki Tehron tabiatining go'zalligi tarjimada juda chiroyli aks etganini quyidagi parcha orqali ko'rish mumkin:

Asliyat:

صبح زود پاییز است. آفتاب ساعتی است در صحنه ی آسمان بالا آمده در اثر بارانی که شب گذشته باریده هوا لطافت خاصی دارد. گاهگاه باد سرد ملایمی میوزد در چنین ساعتی جمعی از مردم تهران مدتی پیش از خواب بسته و آماده کار شده بودند و بعضی از اهالی شهر تازه بیدار شده و از جای برمیخاست و بالاخره برخی دیگر از ساکنین پایتخت همچنان در بستر نرم خود در خواب ناز فرورفته بودند. [تهران مخوف، ۳۲۹]

Tarjimasi:

Ertalab quyosh allaqachon ko'tarilgan, havo tongda yoqqan salgina yomg'irdan keyin juda musaffo, ora-sira kishi ruhini erkalaydigan mayin shabada esmoqda edi.

Tehron aholisining ko‘pchiligi uyqudan uyg‘ongan, ba’zisi uyg‘onmoqda, bir qismi bo‘lsa hali shirin uyquda. [QT,262]

Yuqoridagi parcha orqali ko‘rish mumkinki, parcha biroz qisqartirishlar bilan tarjima qilingan. Masalan, asliyat matnida kuz fasli ekanligi, bundan tashqari quyosh chiqishini ham obrazli tarzda o‘xshatish bilan bergan, ammo tarjimon buni tarjimada aks ettirmagan. آفتاب ساعتی است در صحنه ی jumlasidagi tasvirlangan quyosh chiqishini oddiy jumla bilan tarjima qilgan. Natijada, asliyatda berilgan tabiat tasviri go‘zalligi tarjimada o‘z jilvasini yo‘qotgan. Yozuvchining ta’rifidan ma’lum bo‘ladiki, u so‘zlarni juda chiroyli usulda tanlab, tasvirda mohirona qo‘llagan. Ammo, tarjimada ushbu go‘zallik biroz hiralashib qolgan. Yuqoridagi parchani quyidagicha tarjima qilinganida, asliyatdagi chiroy biroz bo‘lsa ham saqlanib qolingan bo‘lardi: “Kuz faslining erta tonglaridan biri. Kecha tundagi yomg‘irdan so‘ng mana necha soatlarki osmon sahnasida ko‘tarilgan quyosh o‘zgacha latofat bilan nur sochar, goh-goh kishi ruhini erkalaydigan mayin shabada esardi. Bu soatda Tehron aholisining ko‘pchiligi uyqudan uyg‘onib, ishga tushib ketgan, ba’zilari endigina uyqudan turgan, va qolganlari yumshoqqina to‘shaklarida shirin uyquda uxlab yotishardi”. Yuqoridagi parchadan ko‘rinadiki, yozuvchi osmonni sahnaga, quyoshni esa o‘sha sahnada porlayotgan aktyorga o‘xshatgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarjimon buni oddiygina “ertalab quyosh allaqachon ko‘tarilgan” deb tarjima qilgan. Lekin aytish joizki, tarjimon “ora-sira kishi ruhini erkalaydigan mayin shabada esmoqda edi” jumlasini juda chiroyli tarjima qilgan. Yozuvchi esa uni “mayin shabada esardi” tarzida juda sodda shaklda ifodalagan.

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki, manzaralar tasvirida ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi. Ya’ni tabiat haqidagi manzaralar o‘quvchiga asar qahramonining holatini his etishga, uning yashash tarzi, hayoti haqida tasavvurlarga ega bo‘lishga yordam beradi.

Endi yana bir tabiat tasviri aks etgan quyidagi parchani tahlilga tortsak:

Asliyat:

شش ماه گذشت.

شب بهاریست، نسیم سردی که باقی مانده ی لشکر زمستان بود میوزید. شاخه های درختان که هنوز بی بهره از برگهای سبز و زیبا بود. بسان مردان فقیری که پوشاکی در زمستان ندارند. لخت و برهنه اندام خود را نمایان ساخته و در اثر وزش باد سرد میلرزید. آب رودخانه که در آن فصل فزونی داشت در مسیر ناهموارش به تنندی روان بود و هر بار که به سنگهای بسترش برمیخورد صدای ترسناکی را در آن سکوت شب بلند میساخت. صدای دیگری که گوش فقط برای هم آوازی باغرش آب رودخانه بلند شده بود به گوش میرسید. تهران مخوف، ۴۶۰-۴۶۱]

Tarjimasi:

Olti oy o‘tdi.

...yil avvalbahorning salqin bir kechasi, sovuq shabada dov-daraxtlarning yangi chiqqan barglarini tebratar edi. Soylar toshgan, pishqirib oqmoqda bo'lgan suv toshlarga urilib, ko'pirar edi. Suv shaldiroq yig'loqi ovozi bilan kecha tinchligini buzardi. [QT,348]

Yuqoridagi parchada ham tarjimon yozuvchi ishlatgan o'xshatishlarni tushirib qoldirgan. Ba'zi tasvirlar tarjimada qisqarib ketgan. Masalan, yozuvchi qishdan qolgan sovuq shabadani xuddi qishning lashkari qoldirib ketgan sovuq shamol kabi deb tasvirda o'zgacha ohangdor, o'xshatish ishtirok etgan jumla bilan bergan bo'lsa, tarjimon buni tarjimada tushirib biroz boshqacha tarzda bergan. Umuman olganda, yuqoridagi parchada peyzaj tasvirini yozuvchi juda ko'p o'xshatishlarga boy, obrazli tasvirlagan. Ammo, tarjimon jummalarni yaxlitlab, qisqartirib yuborgan, ko'p tasvirga boy qismlarini tushirib qoldirgan. Agar yozuvchi tasvirlagan tabiat tasviri quyidagi tarjima qilinganida maqsadga muvofiqroq bo'lar edi: "Olti oy o'tdi. Bahor kechalarining biri... qishning lashkarlari qoldirib ketgan sovuq shabadalar esar, yashillik va go'zallikdan bebahra qolgan daraxt shoxlarini tebratar, qishki qalin kiyimi yo'q bechora kambag'allar kabi yalang'och tanasi ko'rinib turar va sovuq shamolda dag'-dag' qaltirar edi. Daryo suvi to'lib ketganidan pishqirib oqar va har safar toshdan toshga urilgan mahal tun sukunatida daxshatli ovoz chiqarardi. Bu ovoz bilan birga eshitilib turadigan yana bir ovoz daryo suvining ko'tarishi edi".

Tarjima jarayonida asliyat so'zlarni tarjima tili muqobillari bilan almashtirish, sintaksis qoidalaridan chetga chiqmaslik yoki shaklbozlikdan qochib, muallif uslubi, asarning badiiyy konsepsiyasiga kam e'tibor berib, erkin tarjima yo'liga o'tish ko'pincha jummalarning to'liq ifodalanmay qolishiga olib keladi. Bundan ko'rinadiki, tarjimon yozuvchi tasvirlagan peyzaj tasvirini juda katta qisqartirishlar bilan berganligi tarjimadagi jummalarning to'liq qayta ifodalanmay qolishiga olib kelgan. Hamda, asliyatdagi jozibadorlik, tasavvurda bir o'qishdayoq jonlanuvchi qish tugagandan keyingi daraxtlarning holati-yu, daryo suvining haybatli oqishi tasvirlari tarjimada tushib yoki qisqarib ketgan. Natijada, tarjimoni o'qigan kitobxonda asliyatdagi kabi tasavvur, zavqlanish hosil bo'lmasligi aniq.

Badiiy asarlarda beriladigan tabiat tasviri ham badiiy asar mohiyatini belgilab beruvchi eng muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Chunki, asarda tarjimonning naqadar ijodkorligi, uning badiiy tasvir vositalaridan nechog'lik unumli foydalana olganligini belgilab beradi. Shu sababdan ham badiiy asarda tabiat tasviri asarning ajralmas qismi hisoblanadi. Yana bir peyzaj tasvirini tahlil qilsak:

Asliyat:

هوا بی اندازه سرد بود و باد زنده ای که غالباً پیش آمد برف سنگینی است سخت میوزید زمین در اثر بارانی که چندین شب پی در پی باریده بود پوشیده از گل و لای شده و بصورت منجلابی درآمده بود ابر تیره ای آسمان را پوشانیده بود و بخوبی احساس میشد همینکه سردی هوا کمی فرونتر شود برف سنگینی افتادن آغاز خواهد کرد.

تاریکی کاملی حکمفرما بود و در آن بیابان پهناور کوچکترین روشنایی به چشم نمیخورد و فقط دو فانوس کم نوری در آن صحنه ی ظلمت در پیش و عقب سر عده ای از مردم تکان میخورد. [تهران مخوف، ۱۷۵]

Tarjimasi:

Kun juda ham sovuq edi. Hamisha qor yog‘ishidan xabar beradigan izg‘irin qora sovuq esardi. To‘rt kun surunkasiga yoqqan yomg‘ir yerni ko‘pchitib yuborgan. Osmonni qora bulutlar qoplab olgan, qor yog‘ishi kutilardi.

Sahro zim-ziyo, hech qayerda yilt etgan yorug‘lik ko‘rinmaydi. Faqat yo‘lda ikki xira fonus yog‘dusi ko‘zga tashlanardi, biri oldinda, ikkinchisi bir guruh odamlar ortida. [QT,495]

Tabiat tasviri asarda qandaydir muhim voqea yuz berishidan oldin kitobxonda tasavvur hosil bo‘lishi uchun ma‘lum ishoralar bilan beriladi. Masalan, “Qo‘rqinchli Tehron” romanida ko‘pincha yozuvchi birdaniga voqealar rivojiga o‘tmay, avvalo, o‘sha hodisa sodir bo‘ladigan joyni, tabiatini, havosini tasvirlab, asta-sekinlik bilan kitobxonni jarayonga moslashtiradi. Yuqoridagi tasvir ham yozuvchi bosh qahramon Farruhning boshdan kechirgan qiyinchiliklarini so‘zlab berishidan oldin o‘z tilidan yuqoridagi parchani aytib o‘tadi. Asta-sekin Farruhning kechinmalari, boshdan o‘tkazgan azobli kunlari haqidagi mahzun hikoyaga kirib boradi. Bu yerda tarjimon ham tasvirni to‘lalgicha saqlab qola olgan deyish mumkin. Ushbu tasvirda tarjimon qisqartirmay, o‘zidan qo‘shmay jummalarni xuddi yozuvchidek ravon ifoda etgan va bu uning yutug‘i bo‘lgan. Hatto, tarjimon “izg‘irin qora sovuq”, “surunkasiga yoqqan yomg‘ir yerni ko‘pchitib yuborgan” kabi jummalarni o‘zbek tilida maromiga yetkazib tarjima qilgan. Tarjimon tabiat tasviri orqali o‘sha mamlakat haqida o‘quvchida tasavvur paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘ladi. Shuning uchun, tarjimani to‘g‘ri yetkazib berish muhim hisoblanadi.

XULOSA

Tabiat tasvirlari tarjimasida esa, ko‘plab qisqartirishlarga duch kelindi. Bundan tashqari, tarjimon yozuvchi qo‘llagan obrazlilik, o‘xshatish, jonlantirishlarni tarjimada sodda uslubda bergan yoki umuman olib tashlagan. Qayta yaratilgan peyzaj va portret tasvirlari ba’zi o‘rinlarda erkin yondashgan holda tarjima qilingan. Bu bilan tarjimon biroz yozuvchi uslubidan uzoqlashgan holatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Tarjimon o‘z davrining eng mohir, yozuvchi, shoir va tarjimoni hisoblanadi. U ba’zi o‘rinlarda o‘zbek tilining imkoniyatlari, mentalitetdan kelib chiqqan holda tarjimani kitobxonlarga yetkazib berishga harakat qilgan va buning uddasidan chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. Монография. – Тошкент: ЭФФЕСТ-Д, 2022. – 275 б;
2. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari. – Toshkent: TDSHI, 2014. – B. 176 b;
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 227 б;
4. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 228 б;

5. Введенська Т.Ю. Алексеев А.Я. и тд. Введение в теорию и практику перевода. – Днипро: НГУ, 2017. – 191 с;
6. Shodmonova D. Yashar Kamol asarlarida peyzaj tasviri va uning tarjimalarda aks etishi // Translation forum – 2022, №2(28), 2022. – 253-257 b.